

BO'STON TUMANI IQTISODIY-IJTIMOIIY RIVOJLANISHI VA UNGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

¹G'ulomova Sadoqat Murodjon qizi,²Sariqulov Mirkomil Olimovich

*Andijon davlat pedagogika instituti, ¹“Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari” yo'nalishi 2-bosqich talabasi, ²Tabiiy fanlar kafedrasini o'qituvchisi
Andijon shahri Do'stlik ko'chasi 2-uy*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Bo'ston tumanida joylashgan sanoat korxonalarini, qishloq xo'jaligi haqida ma'lumotlar berilgan. Sanoat korxonalar soni, joylashuvi, qanday turdagi mahsulotlar ishlab chiqarishi hamda qishloq xo'jaligi yer maydonlari, va qanday ekinlar yetishtirishga ixtisoslashganligi haqida umumiy ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar. Bo'ston tumani, iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishi, sanoat korxonalarini qishloq xo'jaligi va ixtisoslashuvi.

Annotation. This article provides information about Boston district, as well as industrial enterprises and agriculture located in the district. General information is provided about the number and location of industrial enterprises, what types of products they produce, and agricultural land areas and what crops they specialize in.

Key words. Economic and social development of Boston district, industrial enterprises, agriculture and specialization.

Asosiy qisim. Bo'ston tumani (1950-2019 yillarda Bo'z tumani) Andijon viloyatining janubiy-g'arbiy qismida joylashgan tuman hisoblanadi. 1950-yil O'zbekiston SSR xalq deputatlari kengashi qarori bilan tashkil etilgan. Mustaqillikdan so'ng 2019-yil 30-sentabrda Bo'z tumani Bo'ston nomiga o'zgartirilgan. Tumanning yer maydoni - **200,5** km.kv.

Umumiy chegara uzunligi – **70,9** kmni tashkil etib, shundan shimol va shimoliy–g'arbdan Andijon viloyatining Ulug'nor tumani bilan -**14,2** km da, shimolda Baliqchi tumani bilan-1.8km, sharqda Shahrixon tumani bilan -**34,4** km, janubiy-g'arbda Farg'ona viloyatining Yozyavon tumani bilan-**20,4** km, janubda

esa Farg'ona viloyati Qo'shtepa tumani, janubiy sharqda Quva tumani bilan chegaradosh hisoblanadi. Bo'ston tumani aholi soni-**71710** (2020) kishi. Shundan shahar aholisi-**25.2** ming kishi, qishloq aholisi-**46.5** ming kishi. Aholi zichligi(1km. kv.ga) **354** kishini tashkil etadi. Ma'muriy hududiy tuzilishiga ko'ra tumanda aholi punktlari soni-**25** tani tashkil etadi. Mahalla fuqarolar yig'inlari-**25**ta, xonadonlar soni-**13868** ta, oilalar soni -**18603** tani tashkil qiladi. Tuman markazi-Bo'ston shaharchasi. Bo'ston tumani Farg'ona vodiysining markaziy qismida joylashgan. Bo'ston tumanining yer yuzasi dengiz sathidan 500 metr balandlikdagi tekisliklardan iborat. Tuman hududi 3 ta massivga bo'linadi. **1)Sharquy Yozyovon massivi. 2)Katta Farg'ona kanali massivi. 3)Ulug'nor massivi.**

Tuman xo'jaligining drayver tarmog'i qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirish va uni qayta ishlash tarmoqlari hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligi: Qishloq xo'jaligida foydalaniladigan umumiy yer maydoni-**20047**gektar, **shundan**, jami ekin yer maydoni-**13827**gektar, shu jumladan sug'oriladigan yerlar-**13827**gektar, o'rtacha sho'rlanish darajasi esa-44%, ko'p yillik daraxtzorlar-**735**gektar , shundan:bog'lar-**347**gektar,uzumzorlar-**42** gektar tutzorlar-**346**gektar, tamorqa ekin yerlari-**1134,5** gektar, foydalanishdan chiqqan yerlar esa- **39** gektar.

QISHLOQ XO'JALIGIDA FOYDALANADIGAN UMUMIY YERLAR MAYDONI		
1	Umumiy yer maydoni	20047
2	Jami ekin maydoni	13827
3	Shu jumladan sug'oriladigan	13827
4	Shundan: sho'rlangan yerlar	44%
5	Ko'p yillik daraxtzorlar	735
6	Shundan: bog'lar	347
7	Uzumzorlar	42
8	Tutzorlar	346
9	Tomorqa ekin yerlari	1134,5

10	Foydalanishdan chiqqan yerlar	39
----	--------------------------------------	----

Bo'ston tumani sanoat korxonalari. Sanoat korxonalaridan asosan foydali qazilma boyliklari , lekin foydali qazilma turlari va korxonalar nomlari qayd etilmagan. Tumanda sanoat korxonalari jami soni 114 tani tashkil etadi. Shundan yirik korxonalar, kichik korxonalar mikrofirmalarga bo'linadi.

№	Ko'rsatkichlar nomi	Korxonalar soni	Mahsulot hajmi (mln.so'm)	O'sish surati	Jamidagi ulushi
1.	Jami sanoat ishlab chiqarish	38	315510	138,5	1.1
2.	Oziq ovqat sanoati	19	55730	138.5	0.9
3.	Meva sanoatlarini qayta ishlash sanoati	-	-	-	-
4.	Go'sh va go'sht mahsulotlarini ishlab chiqarish sanoati	1	10 000	150	3
5.	Sut va sut mahsulotlarini ishlab chiqarish sanoati	5	45 025	173	2.3
6.	Qandolat va non mahsulotlari sanoati	11	3 673.9	120	0.7

SANOATNING TARMOQLAR BO'YICHA TARKIBI

Sanoatning tarmoqlar tarkibi boyicha , oziq-ovqat sanoati shundan, meva sabzavotlarni qayta ishlash sanoati, go'sht va go'sht mahsulotlarini ishlab chiqarish sanoati, sut va sut mahsulotlarini ishlab chiqarish sanoati, qandolat va non mahsulotlari sanoati, vino va spirtli mahsulotlar sanoati, boshqa turdagi oziq ovqat sanoat tarmoqlariga bo'linadi. Nooziq-ovqat sanoati, shundan mashinasozlik sanoati, metallni qayta ishlash sanoati, kimyo sanoati, yengil sanoat, charm-

poyabzal sanoati, farmaseftika sanoati, qurulish sanoati, elektotexnika sanoati, boshqa turdagi nooziq- ovqat sanoatiga bo'linadi.

YIRIK VA ASOSIY KICHIK SANOAT KORXONALARI

№	Korxonona nomi	Yillik ishlab chiqarish quvvati	2019 yilda ishlab chiqarildi				Ishchilar soni
			Natura shakli	Mln. so'm	O'sish surati (%)	Eksport hajmi	
1	Jami sanoat			315510	138,5	8145	1845
2	Yirik korxonalar bo'yicha jami:			58155	101,4	10000	250
3	-Bo'ston tumani "Sayyora favvorasi" MC HJ			58155	101,4	10000	250
4	-kalava ip	800 tonna	630 tonna	58 155	102.2	10 000	250
5	Kichik korxonalar bo'yicha jami						
6	EVRO Ekfin MCHJ	400k m	320 km	6 400	96.4	800	235
7	Sut mahsulotlarini qayta ishlash	90 000 tonna	75 000 tonna				

Xulosa: Bugungi kunda tumanimiz - viloyatda va respublikada o'zining rivojlanishi bilan iqtisodiy ko'rsatkichlarida namoyon bo'lmoqda. Qishloq xo'jaligi yerlari paxtachilik bilan birgalikda sabzavotchilik, poliz ekinlari dehqonchiligi rivojlanib bormoqda. Qishloq xo'jaligida yangi klaster xo'jaliklari tashkil etilib qishloq xo'jaligi va sanoat rivojlanib bormoqda. Klaster respublikamizni iqtisodiy rivojlanishida turtki bo'ldi. Tumanimizda ilgari faqatgina yengil sanoat tarmog'i mavjud edi. Bu sohada islohatlar olib borilib kichik klaster

korxonalari Qodir textile, Sabo textile tashkil etildi. Oziq- ovqat sanoati ham rivojlandi. (Rashk milk, sut mahsulotlarini qayta ishlash.) Bu korxonalar tashkil etilishi natijasida mehnat resurslari bandligi muammosi hal etildi. Hozirgi kunda tumanda mehnat resurslari ko'payib borishi orqali ishsizlar soni ko'paymoqda. Buni oldini olish maqsadida yirik hajimga ega bo'lgan sanoat korxonalarini qurish va tashkil etish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Bo'ston tumani pasporti.
2. Sh K. D., Sarikulov M. O. ANDIJON VILOYATI IQTISODIY TARMOQLARIDAGI TARKIBIY VA HUDUDIY O'ZGARISHLAR, HAMDA, O'SISH QUTBLARI' //Экономика и социум. – 2023. – №. 11 (114)-1. – С. 147-150.
3. Sarikulov, M. O., and G. Olimova. "BALIQCHI TUMANI AHOLISINING YOSH TARKIBI VA MEHNAT RESURSLARINING IQTISODIYOT TARMOQLARIDAGI BANDLIGI VA ISHSIZLIK DARAJASI TAHLILI." *Экономика и социум* 1-1 (104) (2023): 99-104.
4. Хайдаров Н.Х. Маҳаллий бюджетлар: муаммо ва инновацион ечимлар. Ўзбекистон статистика ахборотномаси” илмий электрон журнали. 2020
5. Т.Маликов, Н.Хайдаров. Budjet daromadlari va xarajatlari. O 'quv qo 'llanma, Toshkent: "IQTISOD-MOLIYA, 2007
6. A.V.Vaxabov, Sh A.Tashmatov, N.X.Xaydarov. Moliyaviy savodxonlik asoslari: o'quv qo'llanma-Toshkent. Baktria Press. 2013
7. Sarikulov M.O, Saidto'rayeva Kh.I LOGISTICS COMPLEXES SPECIALIZED IN INTENSIVE CULTIVATION, PROCESSING, DRYING AND SALE OF FRUIT AND VEGETABLE PRODUCTS IN KHOJHAABAD DISTRICT (AS AN EXAMPLE OF NAVIGUL LOGISTICS CENTER) "Экономика и социум" №2(105) 2023 332-335 b